

**“YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATI VA KO’NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH UZLIKESIZ JARAYON” BO’LMOG’I
ZARUR**

Xamrayeva Aysha Kasimovna

Ish yoki o‘qish manzili

Jizzax viloyati Paxtakor tumani Bog‘ishamol MFY E.Xolmatov kochasi 1-uy

Tayanch so‘zlar: *axloqiy, tarix, rivojlanish, taraqqiyot, bosqich, o‘quvchi, faoliyat, məktəb, maxorat, mə’naviyat, ijtimoiy təjriba, fan, psixologiya, ommaviy axborot, və boshqalar.*

Maqola va ishning maqsadi: O‘quvchilarda mə’naviy-axloqiy e’diqodni takomillashtirishning shakl, usul va metodlarini aniqlash hamda kitobxonlikka qiziqtirish.

Ishning ob’yekti: Ta’lim muassasalari talabalari va ularda mə’naviy-axloqiy e’tiqodni takomillashtirish jarayoni.

Maqola yozish maqsadiga erishish va qo‘yilgan vazifalar yechimini topish uchun umumilmiy (tarixiy, biografik, kontent- tahlil), sotsiometrik (test, anketa so‘rov, suhbat), pedagogik kuzatish, tajriba-sinov o‘tkazish hamda matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.

Yoshlarda axborot madaniyati ko’nikmalarini shakllantirish murakkab jarayon sanaladi. Uning murakkabligi shundaki, mazkur jarayonni izchil, uzuksiz, tizimli boshqarishning imkon yo‘q. Shu sababli yoshlarda ommaviy axborot vositalar foydalanish ko’nikmasini shakllantirishda ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, oila hamda ommaviy axborot vositalarining xizmatlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Bunda, ayniqsa, davlat tasarrufida bo‘lgan ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, teleradiokanallarning tarbiyaviy ta’sir imkoniyatlarini aniq maqsadga yo‘naltira olish muhimdir.

Ta’lim muassasalarida yoshlar orasida axborot madaniyatini ta’minlashning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini yorituvchi amaliy harakatlarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratilishi kerak.

Hozirgi global axborotlashuv davrida yoshlarda axborot olish ko’nikmalarini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik talab sanaladi. Mazkur talabning qondirilishi, jamiyat a’zolari tomonidan axborot xavfining mohiyatini yetarlichcha tushunishni taqozo etadi. Yoshlar orasida axborot olishni ta’minlashning ijtimoiy pedagogik ahamiyatini izchil, uzuksiz, tizimli va maqsadga muvofiq tashkil etilishi kutilgan natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Yillar o‘tishi mobaynida insonlar faoliyatini erkinlik, ijodiyot, mehnat, oila butunligi va ularning istiqboli kabi sifatlar egallay boshlaydi. Buning oqibatida, odamlarda tabiat va jamiyatga nisbatan, ideal, real va ratsional munosabatlar paydo bo‘ladi. Shaxsning va yoshlarning o‘zligini anglashda avvalo, individ, shaxs va sub’ekt taraqqiyotining quyidagi holatlariga e’tibor qaratish lozim.

Ayni paytda bir necha tashkiliy masalalarni ham hal etish zarur. Chunonchi, ko’pgina o‘qituvchilar dars berish uslubiyotini yaxshi egallagan bo‘lsalarda, axborot-kutubxonachilik sohasida yetarli bilim va malakaga ega bo‘lmaydilar. Kutubxonachilar esa aksincha. Shu sababli ham o‘qituvchilarga axborot-kutubxonachilik sohasidan ma’ruzalar o‘qib, ularni axborot- kutubxonalar faoliyati bilan tanishtirish, kutubxonachilarga esa dars o‘tish qoidalari, uslubiyotini o‘rgatish muhimdir. Bizningcha, hozirgi kun talablaridan kelib chiqqan holda o‘quvchilarda axborot olish madaniyatini tarbiyalashning o‘ta muhimligini hisobga olib axborot-kutubxonachilik darslarini ommalashtirish, yo‘lga qo‘yish zarur. Avvalo, buning uchun masalaning tashkiliy jihatini hal etish, ya’ni axborot kutubxonachilik darslarini yo‘lga qo‘yish yuzasidan qaror qabul qilish, shu qarorga asosan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, axborot- kutubxonachilik darslarini tashkil etish va o‘tkazishning aniq shakllarini ishlab chiqish zarur. Axborot- kutubxona muassasasida o‘quvchilar axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasini hal qilish faqat ta’lim-tarbiya jarayoniga aloqador bo‘lmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, ma’naviy yuksalishi bilan bog‘liq, davlatning strategik maqsadlariga xizmat qiluvchi faoliyatiga ham daxldordir.

Kitob o‘qish bu ma’lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo‘lmasdan, inson umr bo‘yi o‘rganadigan ma’naviy ehtiyojdir.

Hozirgi vaqtida televideniye ko‘rsatuvlari o‘zining jozibadorligi, rangbarangligi va ko‘lamdorligi bilan ko‘rsatuvlar hajmi kengayib bormoqda. Tayyorlanayotgan ko‘rsatuvlar mazmun va mohiyati jihatidan yoshlarimizni ma’naviy rivojiga, estetik dunyoqarashining shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatmoqda. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov yosh avlodda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish uchun ular orasida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot-tashviqotning samaradorligini oshirish zururligini ta’kidlab —Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch nomli asarida shunday yozadi: —Ma’naviyat haqida har qancha da’vatlar, muhim nazariy choralar bildirmas, agar ularni jamiyat ongiga sindirish uchun doimiy ish olib bormasak, bu bora-dagi faoliyatlarimizni har tomonlam puxta o‘ylangan, tizimli ravishda tashkil etmasak, tabiiyki, biz ko‘zlangan maqsadga erishaolmaymiz, ya’ni inson qalbiga yo‘l topa olmaymiz. Shuning uchun ham biz bugungi kunda ta’lim-tarbiya sohasidan boshlab matbuot, televideniye, Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr,kino, adabiyot, musiqa, rassomchilik va haykaltaroshlik san‘atiga bir so‘z bilan aytganda insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardan faolligimizni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur deb takidlagandi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, talaba yoshlarni ma’naviy shakllantirishdagi eng qudratli va ta’sirchan vosita asosida ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Ayni paytda mamlakatimizda 870 dan ziyod gazeta va jurnallar, 100 ga yaqin davlat va nodavlat radio, telestudiylar, 4 ta axborot agentligi va kabel telestudiylari mavjud bo‘lib, ular erkin faoliyat ko‘rsatmoqda. Dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarda ommaviy-axborot vositalari jamiyat ijtimoiy siyosiy hayotida yetakchi o‘rin tutadi. Gazeta va jurnallar, radio va televideniye har bir davlatda omma bilan hokimiyat o‘rtasida o‘ziga xos aloqa vositasi,

oshkorlik ko’zgusi, haqiqat jarchisi bo‘lib xizmat qiladi. Birinchi prezidentimiz jamiyatimizning bugungi hayoti, uning barcha quvonchli, shu bilan birga mashaqqatli og‘ir tomonlari matbuot va ommaviy axborot vositalarida o‘zining qanchalik xolisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolat va to‘g‘ri so‘zlik muhiti hukmron bo‘ladi, deb juda oqilona ta’kidlanganlar.

XX asr mo‘jizasi, deb hisoblaydilar. Jamiyat a’zolari ma’naviy hayotining ajralmas bo‘lagi, zamonaviy texnika bilan jihozlangan televideniya amaliy jihatdan yer kurasining turli mintaqalaridan, xattoki kosmosdan deysizmi, okean tubidan deysizmi, umuman bizga turli-tuman axborotlarni yetkazib turibdi. Bizning hayotdagagi o‘zaro muloqotlarimizning rivojlanishi, ma’naviy olamimizning boyishi ham bevosita teleko‘rsatuvarlar materiallarining mazmuniga bog‘liqdir. Teleko‘rsatuvarlar kishilarning ongiga ijtimoiy-siyosiy hayot voqealari bilan boyitish, ularni zamonaviy fan va san‘atga bo‘lgan qiziqish va intilishlarini to‘ldirish vositasi bo‘lsa, so‘zsiz rivishda ular insoniyat ma’naviy olami kamolotining zarur omiliga aylandi.

Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, televideniye XX asr fojiasidir. Ular televideniyeni insoniyat uchun —axborot-ko‘ngilochar giyohvandligi deb hisoblashadi. U insoniyatni o‘zining ta’siriga tushirib katta ommaning tafakkur bilan xulq-atvorini, idroklashini stresslashtirib oladi, ularni fantaziyalardan, ijodiy tashabbuslardan, mustaqil fikrlashidan mahrum qiladi. Televideniye oilada, do‘srlar bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabat imkoniyatini kamaytiradi, muloqotni rasmiy yoki yuzaki qilib qo‘yadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bo‘sh vaqtning ko‘p bo‘lishiga qaramay, jahonning ko‘p mamlakatlarida teleko‘rsatuvarlar oqimining ko‘pligi natijasida bolalar bilan ota-onaning turli muloqot shakllari sezilarli darajada kamayib borayotir. Televideniye ko‘rsatuvarlari bolalar va o‘smirlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini ham pasaytirib yuborgan, ular oson yo‘lga o‘tib olishgan: ya’ni televideniyeden tayyor holda axborotlarni oladilar, bu esa aqliy mushohada ishlatib kitob o‘qigandan ancha oson. Amerikalik tadqiqotchi V.Pekard televideniyening yoshlari kamoloti uchun xatarli tomonlarini ko‘rsatib o‘tadi. Televiediniye ko‘rsatuvarlari bolalarda haqiqiy olam haqidagi tasavvurlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Yoshlar me’yordan ortiq teleko‘rsatuvlarni tomosha qilsalar, ularning diqqat ko‘lami toliqadi, fikrlash qobiliyati ko‘rsatuvarlar andozasiga tushib qoladi. Shu bilan birga televideniyeda yolg‘on-yashiq, tazyiq, zararli illatlarni birinchi o‘ringa qo‘yib tayyorlangan ko‘rsatuv va filmlarning namoyish etilishi shaxsning barkamolligiga, insonni ichki olamiga, ma’naviyatiga salbiy ta’sir etishi aniq.

Hozirgi davrda televizor qisman kitob o‘qishni siqib chiqarayotir, degan e’tirozlar ham paydo bo‘lmoqda. Lekin televizorda biror ko‘rsatuvni ko‘rish uchun har bir inson tayyorlanadi, o‘ziga qulay sharoit yaratadi. Teledasturlar qaysi ko‘rsatuvni qachon ko‘rishga o‘rgatadi. Agar kitob o‘qish uchun ham ota-onalar ana shunday sharoit yaratsa, televizor ko‘rish va tanlab kitob o‘qishni, qiziqib o‘qishni o‘rgatsa, ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin. Kitobxonlikda eng muhimi oilada kitobga mehr uyg‘otish, uni avaylab- asrashni

tarkib toptirishdir. Shunda faqat allomalargina emas, ko’plab oddiy insonlar ham kitobni asrab-avaylaydilar.

Xalqimiz azaldan —Kitob har narsadan aziz, uni peshonaga surtish - O’pish savob, deydi. Buyuk olimu adiblarimiz Oybek, G’afur G’ulom, Izzat Sulton, Mirzakalon Ismoiliy va boshqalarning uy muzeylariga ota -onalarning O’z farzandlari bilan sayohatlarida bu insonlar uchun kitobdan boshqa aziz narsa bo’lmaganligi, ular kitoblarni avaylab-asraganlari, juda ko’p o’qiganlari ma’lum bo’ladi. Zero, xalqimizning kitobni e’zozlab ardoqlagani, nam tegmaydigan tokchalarda asragani, bo’sh vaqtlarini kitob mutolaasi bilan o’tkazganlari kitobga naqadar mehr-muhabbat qo’yanlarning guvohidir. Bularning barchasi o’smirlarda shaxsiy kutubxona tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob yig’ishdan maqsad uni ko’z-ko’z qilish emas, balki o’z oilasidagi farzandlari va ularning do’stlarini ham bahramand qilishga olib keladi. Jamiyatda kitob o’qish va axborot olish madaniyatini shakillantirish va yoshlarni bu borada tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma’naviy -ma’rifiy, umummilliy muammo bo’lmog’i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz (1-jild). – Toshkent: O’zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O’zbekiston, 2017.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagи “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-3907 qarori
4. Maxmudova R.X. Yoshlar tarbiyasida ommaviy axborot vositalarining roli //Oliy ta’limda zamonaviy O’quv, ilmiy va tarbiyaviy faoliyatni takomil-lashtirish muammolari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Guliston, GulDU, 2006.